

**SHARQ MUMTOZ SHOIRALARI ASARLARIDA IJTIMOY-FALSAFIY QARASHLAR, HAMDA GENDER TENGLIGI MASALASI.
(NOZIMAXONIM IJODI MISOLIDA)**



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653638>

Ahrorova Madina Rahmatovna
Samarqand Davlat chet tillar instituti
stajyor o‘qituvchisi
E-mail: akhrorova.madina@mail.ru

ANNOTATSIYA

Nozimaxonim (1870 – 1924, Toshkent) O‘zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi jurnalist-publitsist. Tatar, arab va fors tillarini o‘rgangan. Orenburg va Qozonda chiqib turgan matbuotni muntazam kuzatib borgan. Yevropa adabiyoti va madaniyati bilan tanish, erkparvarlik g‘oyalariidan bahramand bo‘lgan va bu g‘oyalarni bizda ham targ‘ib qilgan. Barcha mumtoz shoirlar singfari Nozimaxonim ham maorifni jaholat va razolatga qarshi qurol qilib olgan. O‘zbek va fors mumtoz adabiyotini, ayniqsa, Sa‘diy, Hofiz asarlarini o‘qigan. Sharq va g‘arb ta‘limini olgan shoiraning ijodi g‘azallar misolida ushbu maqolada tahlil qilingan. Shuningdek, shoiraning ijodida ozodlik motivlari nozik qochirim, irfoniy g‘azallar asosida bezak berilgan bo‘lib maqolada ushbu masalalar falsafiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. “Sadoyi Turkiston”, “Taraqqiy”, bo‘ston, riyoziyot, jaholat, zulm, maorif, erk, zamon, fusn.

АННОТАЦИЯ

Нозимаханым (1870 - 1924, Ташкент) был первым узбекским журналистом-публицистом. Он изучал татарский, арабский и персидский языки. Регулярно следил за прессой в Оренбурге и Казани. Он был знаком с европейской литературой и культурой, увлекался идеями либерализма и пропагандировал эти идеи в нашей стране. Нозимаханым, одинокашник всех поэтов-классиков, тоже воспринял образование как оружие против невежества и разврата. Он читал узбекских и персидских классиков, особенно Саади и Хафиза. Творчество поэта, получившего образование на Востоке и Западе, анализируется в данной статье на примере газелей. Также мотивы свободы в творчестве поэта оформлены на основе тонких, мистических стихов, и в статье дается философский анализ этих вопросов.

Ключевые слова. «Садои Туркистон», «Тараккий», математика, невежество, угнетение, образование, свобода, язык, внешность.

ABSTRACT

Nozimakhanyum (1870 - 1924, Tashkent) was the first Uzbek publicist journalist. He studied Tatar, Arabic and Persian. Regularly followed the press in Orenburg and Kazan. He was familiar with European literature and culture, was fond of the ideas of liberalism and promoted these ideas in our country. Nozimahanim, a classmate of all classical poets, also took education as a weapon against ignorance and depravity. He read Uzbek and Persian classics, especially Saadi and Hafiz. The work of the poet, who was educated in the East and West, is analyzed in this article on the example of gazelles. Also, the motifs of freedom in the poet's work are framed on the basis of subtle, mystical poems, and the article provides a philosophical analysis of these issues.

Keywords. "Sadoi Turkiston", "Tarakkiy", mathematics, ignorance, oppression, education, freedom, language, appearance.

KIRISH

Mumtoz shoirlar ijodiga nazar tashlar ekanmiz, mavjud davr muammolari ayollarning jamiyatdagi roli e'tirof etilgan. Shariat ahkamlari hukmron davrda xotin-qizlarga bo'lgan munosabat zamona zayli bilan o'zgargan. Xotin qizlarga bo'lgan munosabatlarni o'zgartirish ularning xo'rliklar va tazyiqlarga uchrashi kabi muammo va ularning yechimlari shoirlar ijodida lirika misolida ifodalab berilgan. Mumtoz shoirlar jamiyatda ayollarning ham o'rni bo'lishi ularning ham orzu-havaslarini borligini eslatib o'tishgan. Ayollar bilan erkaklar teng bo'lgan jamiyat, ayollarning ham bilim olish, kasb tanlash erkinligi keladigan zamona kelishiga ishongan, umid qilgan va shunga qarab harakat qilgan, sherlar yozilgan, g'azallar bitilgan.

Bir so'z bilan aytish joizki, shoirlar tanlagan yo'l stixiyali yo'l bo'lib, maorif yo'lidan borishgan. Ana shunday shoiralardan Nozimaxonim She'r va maqolalari 1900- yildan matbuotda bosilgan. 20 yoshlarida shoira "beshyog'ochlik Nozimaxonim" nomi bilan mashhur bo'lgan. Taraqqiyot, ma'rifat va madaniyatni tashviq etuvchi she'r va manzumalari, jaholat, bid'at-xurofotni fosh etuvchi asarlari, zamonasidagi ijtimoiy tengsizlik va avj olgan milliy istibdoddan keskin norozilik bayon qilingan o'tkir hajviy she'rlari "Shuhrat", "Sadoyi Turkiston", "Taraqqiy" kabi gazetalarda muntazam chiqib turgan. Shoira mehnatkash xalqning milliy ozodlik harakatini qo'llab-quvvatlagan, xotin-qizlarning jamiyatdagi roli va o'rni haqida asarlar yozgan, jaholat va zulm poymol etgan o'zbek ayolining milliy, insoniy

haquqklarini talab qilib chiqqan ("Insonga qancha erk darkor?", "Ilm va maorif borasida bir-ikki so‘z", "Xotinlar huquqiga oid" va boshqalar).

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

O‘zbek shoiralari ijodini o‘rganish ular qoldirgan merosning to‘la nashrlarini tayyorlash keying 15-20 yil ichida muhim qadamlar qo‘yilganligi diqqatga sazovordir. Jumladan, A.Qayumov tomonidan tayyorlangan Nodira g‘azallarining birinchi va ikkinchi nashri[1,891], Uvaysiy devoni, Shuningdek, filologiya fanlari nomzodi O‘tkir Rashid tomonidan Uvaysiy, Nodira, Maxzuna sherlaridan iborat „ Uch shoira “nomi bilan nashr etilgan majmua kitobxonlarga manzur bo‘lgan.[2,78]

O‘zbek shoiralari ijodi bilan tanishishda T.Jalolov tuzgan „O‘zbek shoiralari to‘plami” alohida ahamiyatga ega[6,5].Tojik adabiyoti namoyondalari Toji Usmon,A.Muxtorov, T.Shodiyevlarning ilmiy izlanishlari hamda ular qoldirgan asarlar taxsinga loyiq. Toji Usmon tomonidan nashr etilgan „Bistu se adiba”[3,7] to‘plamida X asrdan boshlab o‘zbek va fors-tojik tillarida ijod etgan 23 shoiralarning ijodi, sherlaridan namunalar va ular hayotidan parchalar keltirilgan. Dilshodi Barno uning hayoti va ijodini o‘rgangan tojik olimi A.Muxtorov Dilshod va uning XIX XX asr boshlarida tojik xalqi ijtimoiy fikr tarixida tutgan o‘rni”, „Dilshodi Barno va uning adabiy merosi” asarlarida adibaning ijtimoiy falsafiy fikrlarini yoritgan.

Filologiya fanlari nomzodi A.Jalolovning „1905-1917-yillar ma`rifatparvar-demokratik o‘zbek adabiyoti” nomli tadqiqotida Toshkentda yashab ijod etgan progressiv shoirlar qatorida Nozimaxonim ijodiga ham to‘xtalib o‘tadi. Nozimaxonim „xo‘rlangan mazlumalar”va ezilgan bechora mardumalar” haqida muhabbat bilan sherlar yozgani va „bechora avom fikri” bilan yashaganligi qayd etiladi. [7,154]

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Shoira ijodiga nazar solar ekanmiz uning sherlarida Vatan madhi, yurt sog‘inchi tarannum etganini ko‘ramiz. U ham zamondoshlari kabi yurtni ozod va obod, xalqni ma`rifatli ko‘rishni orzu qiladi va shu maqsad ila qo‘liga Qalam oladi.

Qizil gul, bog‘u bo‘stonim qayonsan?

Fidodur senga bu jonim, qayonsan?

Qaroru sabru oromim tugandi,

Ushalmay qolgan armonim, qayonsan?

Erib jonu jahonim, qoldi jismim,

Zaif holimg‘a darmonim, qayonsan:

*G‘amu dardlarg‘a darmonlar yitildi,
Yo‘qolgan tig‘i xunxorim, qayonsan?*

*Agar yotsam o‘lub tuproq ichinda,
Topilmas ahdu paymonim, qayonsan?*

*Hama oshiqlar o‘ldi yuz gadoying,
Yuzi gul, sunbul afshonim, qayonsan?*

*Kelubtur eshikingga Nozimang, hay,
Sevintir oni, sultonim, qayonsan?*

Nozimaxonim ayollarning uy- ro‘zg‘or ishlaridan tashqari ilmi, ma`rifatli bo‘lishga chorlaydi.

*Agar o‘qsang ani chashm oldida olam surayyodur.
Tamomi ilmi hikmat ham riyoziyot, falakiyot,
Etilmushdur bayoni bu zaboni ila ki tibbiyot,
Jahonning turli g‘avg‘osi, yangi ko‘p hodisoti ham,.*

Kishi o‘qisa deydi shoira ushbu misralarda dunyoning o‘zi uning poyida bo‘ladi. Diniy ilmlar bilan birga dunyoviy ilmlarnin egallash, jahonning ko‘p voqeotidan bhramand bo‘lishga olib kelishini o‘sha zamonlarda anglab yetgan shoira xalqni ilmi bo‘lishga da`vat etadi. Demak shoira ayollarni ham o‘qishga dunyoni anglashga da`vat etgan. Mutta`sib zamonada yashab turib ham ma`rifatni o‘ylash bu juda katta jasorat mening fikrimcha.

Bu yo‘lda esa til o‘rganish ziyo eshiklarining ochilishi uchun kerakligini anglab yetgan shoira til bilgan el bilar degan maqsadda ushbu misralarni qayd etdi:

*O‘qing rusi zabonin, el aro bu yaxshi xislatdur,
Zaboni bezabon bo‘lmoq, biling, bu koni illatdur,
Bilay desang zamon ichra haqiqiy sirri hikmatni,
Yo‘q et mulki vujudingdin fasodu kulli bid‘atni,
Hamma ilmu aqoid rus zaboninda muhayyodur,
O‘qubsan, Nozima, rusi zabonin, senga xislatdur,
Zaboni bezabon bo‘lmoq, biling, bu koni ofatdur.*

Shoiraning o‘zi tatar, arab, fors tillarini o‘rgangan. Nozimaxonim oilada va jamiyatda ayollarning nufuzini ko‘tarish. Ularning ham davlat mansablarida ish yurita olish imkoniyatlari haqida o‘z maqolalari va sherlarida yozgan shoira ko‘plab tazyiqlarga uchragan. Zamondoshlari orasida „fozila” nomi bilan mashhur Nozimaxonim ham hurfikrligi sabab tanqidlarga uchragan.

Bu haqida o‘zi shunday yozadi.

Ichmadim hayot chashmasidan bir qonib,
Davr jabrdin, netaykim jism ila jonim yonib,
Xalq dermishlar meni bu yurt aro “ko`p fozila”
Lek yurmishman hamisha darbadar majruh bo`lib
Men desam adl-u diyonat hokimlara
Quvdilar majnun debon hech yerda qo`ymay bu g`arib

O‘tmishda yashab ijod etgan barcha shoiralarning g‘oyalari garchi ijtimoiy taraqqiyotning progressiv tendensiyasini ifodalasa ham, bu g‘oyalar o‘sha davr sharoitida amalga oshishi mumkin emas edi. Chunki mavjud tuzum mohiyati bilan progressive idealdagi hayot bir-biriga zid edi. Shuning uchun ham progressiv go‘yalarni ifodalovchi badiiy asarlarda ko‘pincha real ijtimoiy tuzum turli usullar bilan inkor qilingan. Kelajakka umid bilan qarash stixiyali yol bilan bo‘lsada, ijtimoiy taraqqiyot yo‘lini muayyan darajada ko‘ra bilish boshqa shoiralarga nisbatan Nozimaxonim ijodida kuchli seziladi. Zero, u inqilob arafasida yashab ijod qildi. U yozgan sherlarda adolatsizlikka qarshi ochiq isyon ko‘taradi. Hukmron sinflarning qabihliklarini, ma`naviy tubanliklarini fosh qilish jarayonida go‘zal jamiyat to‘g‘risidagi o‘z istaklarini, tushunchalarini ilgari suradi. Uning sherlari shoira ijtimoiy hodisalarni anglashda boshqa shoiralarga nisbatan bir qadam ilgari ketganligini ko‘rsatadi. Binobarin, hukmron sinflar, boyvachchalarning aysh-ishratlari kambag‘al xalqning ayanchli. Og‘ir mehnati hisobiga bo‘layotganlig, jamiyat manfaatlari, maqsadlari va intilishlar, shuningdek, jamiyatda tutgan o‘rni jihatdan keskin farq qiluvchi ikki guruh-jafokash mehnatkashlar va tekinxo‘r oqsuyaklarga bo‘linganligini anglaydi:

Ko`ring do`stlar yuz ming voy aysh-ishrat bir yonda ,
Qashshoq mazlum boshida qayg`u-hasrat bir yonda.
Boyvachchalar so`rsangiz ham tun-u kun bazm ishratda

*Mazlum yo ‘sullar-chun xizmatda bir yonda
Bir yon bo ‘lib boyonlar g`arq bo ‘lib tangayu tilloga
Burda non deb bechora qilar mehnat har tomonda.*

Zamona ziddiyatlarini shu qadar jonli, haqqoniy ifodalagan shoira shubhasiz, go‘zal jamiyatni shunday ziddiyatlar kishini ekspulatsiya qilishga chek qo‘yilgan, kishilarning huquqlari poymol qilinmaydigan, mehnatkash xalqda chinakam erkinlik, teng huquqlilik beradigan jamiyatni orzu qiladi.[7,281]

Nozimaxonim hayotda bo‘ladigan barcha qiyinchiliklarning adolatsizliklarning sababi o‘sha davr ijtimoiy munosabatlarning mahsuli ekanligini, hatto, kishilar xatti-harakatidagi ziddiyatlar, tubanliklar ham zamonaning xatosi deb nihoyatda to‘g‘ri e‘tirof etyadi. Bu aqliy teranlik shoironing san‘at, adabiyotning, Qalam ahlining ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni aniqlashga ijodidagi ijtimoiy- falsafiy qarashlariga realistik prinsiplarga asoslangan.

Nozimaxonim ijodida mazmun birinchi o‘rinda turishini, anglab falsafiy mushohada qiladi. Uni dunyoni anglashga bo‘lgan fikrlari sermulohazali.

Hayot haqiqatini ifodalash o‘rniga mazmunsiz fikr-u qofiya bilan, asossiz ig‘volar bilan cheklanuvchi shoiralarni jazolash kerak deb hisoblaydi. Ular hayotning mazmunini anglab yetmasdan balki, behuda umrni sarflamoqda deb hisoblaydi. Eng muhimi shundaki, Nozimaxonim zamonaning shunday shoiralari dan manfaatdor ekanligini, bularga shon -shuhrat berish zamonaning xatosi ekanligini baralla aytadi. Uning 1913-yilda yozilgan “Ahli nazm haqida” sherida xuddi shunday g‘oyani ilgari suradi.

*Afsus nadomat ko‘p hoy derga yo‘q bir oqil,
Onlarga berdi shuxra zamonaning xatosi*

Nozimaxonim o‘zining ideal jamiyat yaratish to‘g‘risidagi orzu-istaklari reallashtirishga, ijtimoiy adolat qaror topdirishga, haqiqat g‘alab qilishga to‘la ishongan. 1907- yilda yozilgan “Afsus” sherida quyidagi misralar fikrimizning dalili bo‘lishi mumkin.

*Bugun davron surib javlon suronlar,
Degin naming aro haq so‘zin Nozima
Bo‘lur albat ta zulm tuni bardam.*

Nozimaxonim haqiqiy hayot qora tundan keyin keladigan kunni kelishiga ishondi. U orzu qilgan zamonga bugun biz erishdik.

Uning o‘zi ham orzu qilgan zamonasida oz fursat bo‘lsa-da yashadi. Xuddi shuning uchun ham butun hayoti davomida orzu qilib kelgan go‘zal zamona ga

ertishganidan zavqlanib , hayotning go‘zalligidan zavqlanib kuyladi. Chinakam insonparvar, olijanob jamiyat qaror topishiga chuqur ishongan holda bu ijtimoiy haqiqatni tushunmagan, tushunishni xohlamagan shoiralarni tanqid qilgan. Nozimaxonimning “Ahli faryodim” sheridan uning ijtimoiy taraqqiyot yo‘nalishini to‘g‘ri anglaganligi , xalq tanlagan yo‘l to‘g‘ri ekanligi, uning orzu-istaklari abstrakt emas, balki, amalga oshirish mumkin bo‘lgan real deb hisoblash mumkin[4,23]:

*Karvonki otlanibdur, qaytmas also yo‘lidan
Gar qilsa hamki dushman tajovvuz o‘ng-u so‘lidan
Karvon qolmas yo‘lidan gar qancha xursa saklar
Anga muyassar bo‘lgay barcha orzu-tilaklar.
Behuda bad xayoling also bo‘lmas muyassar
To‘ru kafanni sozlab otlan yo‘lg abo yak bor*

Nozimaxonim hayotning naqadar go‘zalligini e‘tirof etib, barchasi kishi uning o‘z qo‘lida harakat qilsa hayoti go‘zal bo‘lishi, ozodlikka erishish, maqsadga erishish bir qadam bo‘lib qolishini falsafiy mushohadalar bilan asoslab bergan. So‘z san‘atini, poeziya shuningdek, ma‘rifat orzuga erishishda muhim rol o‘ynaydi deb hisoblaydi. Xuddi shuning uchun ham o‘zbek shoiralari ijtimoiy davr muammolarini ochib berishda so‘z san‘atidan foydalanganlar. Ma‘rifat adolatsizlikka qarshi kurashuvchi qurol sifatida bo‘lgan. [3,98]

Nozimaxonim ma‘rifatparvar bir shoira sifatida o‘sha davrning juda ko‘p ijtimoiy illatlarini o‘tkir qalami bilan ochib beradi. Ma‘lumki, o‘sha davrda hali ilm-ma‘rifat xurofotlar ta‘sirida edi. Eshonlar, otinoyilar, baxshi va qushnochlar esa bu ijtimoiy baxtsizlikdan foydalanib bechora ayollarni yerga urar edilar. Ayollarni bu aldamchilar tuzog‘idan ozod etish, ularni eshon va eshon va eshonoyimlarni makrhiylalaridan ozod etish uchun Nozimaxonim satirani ishga soladi. “Eshonoyimlar ta‘rifida sarlavhali satirasi juda katta ahamiyatga ega.

*Eshon oyim demangkim, yaxshi sabor ekanlar
Nazru niyoz kam bulsa. badbin, beor ekanlar.
Orsa solib kuf-suf lab, beburd so‘zlarni so‘zlab,
Ko‘rub bid‘at deganning, jerkib makonin.
Darig‘g yolg‘om ekanin . tinnmay solg‘on ekanlar.
Suratlari nuroniy, siyratlarn shaytoiny,
Qachon hasrat desangiz xufya yurtor ekanlar*

Ko‘rinib turibdiki, shoira xuddi nishonga urgan. Dardododot «nodon bechoralarni ipsiz bog‘lagan», «bid‘at do‘konni ko‘rgan», «suratin nuroniy, siyрати shaytoniy»—eshon

oyimlar jaholat va zulmatning timsoli edilar. Nozima xonim ularni juda yaxshilab fosh etgan.

Yoxud Nozmia xonimning «Ming taassuf» she’rini olib ko‘raylik. Shoira bu she’rda ma’nosiz vaqt o‘tkazgan, xotinbozlik, domorbozlik, ichknlikbozlikka zeb bergan kishilarni fosh etib, zamon ularni bu adolatga solib b qo‘ygandya afsuslanadi.

Ming taassuf. ajab zamon . o‘ldi.

Yaxshi kim ersa, ul yomon o‘ldi.

Ba‘zilar moykli zakon o‘ldi,

Ba‘zi el tolibi juvon o‘ldi.

Xar metalla ichida to‘rt samovar,

Necha nodon chiqib qimor o‘ynar,

Ba‘zi mastu eshak kabi xangrar,

Qo‘limizi ko‘rib kular ag‘yor.

XULOSA

G‘oyat va o‘tkir siyosiy, ijtimoiy mavzularda asar yozgan, jamiyatdagi tengsizlik va adolatsizlikka qarshi ovoz bergan Nozima xonim ijodida xotin-qizlar ozodligi, ularning teng xuquqi mavzusi katta o‘rin tutadi. Chindan ham jamiyatning yarmini tashkil etgan xotin-qizlar arosatda, zulmat pardasi ostida qolarkan, jamiyatning tengligi haqidagi da‘vo puch bo‘lib qoladi. Shuning uchun Nozima xonim xotin- qizlar ozodligi, ularning bilimli va ma‘rifatli bo‘lishlariga alohida e‘tibor ahamimiyat beradi. Opa-singillarini, dugonalarni o‘qishga, bilimli, ma‘rifatli bo‘lishga, «bid‘at uyqusidan» uyg‘otishga undaydi, ularni «ilmu urfon sari qo‘zg‘oling! deb da‘vat qiladi.[2,252] Mana shu jihatdan shoiraning «Ayo mardumalar» she’ri nihoyat xarakterlidir:

Ayo mardumalar, aytay siza dardim, quloq soling,

Bu nandur so‘zlarim dardim quloqqa osib oling,

Xama qo‘zg‘oldi. siz ilmu irfon sori qo‘zgoing!

Asrlar eltgon ul bid‘at ul Qo‘qondni uyg‘oting!

«Zaifu notavonlar deb biza doim nasib o‘ldi-

Ki ul zulmatin timsoli chodir — chimmat nasib o‘ldi.

Asrlar eltgon ul bid‘at uyqusidin uyg‘onnig!

Bodikim, o‘zga millat so‘zlari na yerlara sotmish.

Asrlar eltgon ul bid‘at uyqusidin uyg‘oning.

Ko‘rinib turibdiki, Nozimaxonim jamiyatda ayollarning ham ilmi, zukko bo‘lishlari tarafdori. Ularni asrlar davomida shariat aqidalari mustahkam eltgan bid‘at uyqusidan uyg‘otishga harakat qilgan. Nozimaxonim ham zamondoshlari, Manzurabegim, Samar bonu kabilar qatorida ayollarning paranjisi tashlashlari tarafdori bo‘lgan. Ularning ham jamiyatda

o‘z o‘rmini topishi, haq-huquqlarini bilish hamda ilm-u marifatli bo‘lishga haqlidirlar deb aytgan. Bir so‘z bilan aytganda ular orzu qilgan zamonada yashayapmiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Adabiy meros O‘zbek adabiyoti tarixidan tadqiqot va materiallar: ilmiy asarlar to‘plami S/ 49/. T 1989 - 79s 891- 709 A- 281
2. Jalolov T. O‘zbek shoirlari. 1- kitob (XVII asrdan oktabr inqilobigacha) . II nashr. T., badiiy adabiyot nashriyoti 1970 344- bet. 891 709 J -252
3. T.Usmon.Bistu se adiba, Dushanbe, Nashriyoti davlati Tojikiston,1957. 4. Xamrayeva A , O‘zbek shoirlari go‘zallik istab (XIX asr va XX asrning boshi) T. ,, O‘zbekiston" nashriyoti 1974 35- bet (891.709) X -187
4. Jalolov T. O‘zbek shoirlari. 1- kitob (XVII asrdan oktabr inqilobigacha) . II nashr. T., badiiy adabiyot nashriyoti 1970 344- bet. 891 709 J -252
5. Jalolov T. O‘zbek shoirlari. 1- kitob . T., badiiy adabiyot nashriyoti 1980 416- bet. 891 709 J -2528.Nodira Devon O‘zbek va fors tillaridagi sherlar T. O‘z FA nashriyoti (1963 619-bet) 894.3 H-730
6. Qodirova Mahbuba XIX asr o‘zbek shoirlari ijodida inson va xalq taqdiri. T., ,, Fan" , 1977 184- bet (O‘zb SSR FA A. Navoiy nomidagi davlat adabiyot
7. Axrolova, M. P. (2022). OZBEK MUMTOZ SHOIRLARI IJODIDA GENDER TENGLIGI MASALASI. *ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ*, (SI-1).
8. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (1 (74)), 124-127.
9. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. *АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ*, 1(1).
10. Джураев, Д. М. (2017, January). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In *Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в.* (pp. 84-88).
11. Odil o‘g‘li, T. I. (2021, October). Qadimgi Xitoy Madaniyatining Shakllanishi. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (pp. 137-139).
12. Tojiboev, I. O. U. (2021). CHINESE ARCHITECTURE. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 40-42.
13. Odil o‘g‘li, T. I. The history of the origin of the Chinese language and the work done to date.

14. Турниязов, Н. К. (1985). Принципы формирования синтаксической структуры сложноподчинённого предложения в узбекском языке/-Ташкент. Укитувчи.–1985,-с22.
15. Турниёзов, Н. (1998). Назарий грамматикадан очерклар. Самарканд: СамДЧТИ, 998, 48.
16. Сулейманова, Н. М., & Турниязов, Н. К. (2018). О ФОРМИРОВАНИИ СТРУКТУРНОЙ СХЕМЫ В ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ СОЗНАНИИ. In Научные школы. Молодёжь в науке и культуре XXI века (pp. 39-42).
17. Турниёзов, Н. (2016). Синтагматик муносабат ва дискурс шаклланишига доир баъзи қайдлар. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 1(4), 10-13.
18. Тухтасинов, И. М. (2011). Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Ташкент: УзГУМЯ.
19. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Modern views on the problem of distance and traditional methods of teaching italian language in higher education institutions. *Society and Innovation*, 2(2), 111-117.
20. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.
21. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In *Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference, Samarkand*.
22. Тухтасинов, И. М. (2018). Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.
23. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In *Mat. International scientific and creative forum "Youth in science and culture of the XXI century"*. Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).
24. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. *Вестник Челябинского государственного университета*, (2 (256)), 122-125.
25. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Современные взгляды на проблему дистанционного и традиционного методов обучения итальянскому языку в высших учебных заведениях. *Общество и инновации*, 2(2), 111-117.

26. Тухтасинов, И. М. (2017). Дискурсивный подход в обучении переводчиков. In Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в. (pp. 229-231).
27. Тухтасинов, И. (2021). Таржимоннинг касбий компетенцияси ва фаолият функциялари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (80)), 5-10.
28. Тухтасинов, И. (2021). Особенности формирования учебного процесса в системе высшего образования Узбекистана в условиях Covid-19. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (78)), 11-18.
29. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
30. Tuxtasinov Maqsadjon Murodjon O‘G‘Li (2020). San‘at va madaniyat sohasi talabalari bilimlarini nazorat qilishda nostandart testlarning afzalliklari. Oriental Art and Culture, (III), 320-325.
31. Тухтасинов, У. М. (2020). ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА. Мирская наука, (3), 498-501.
32. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
33. Tuhtasinov, Ithom and Lutfilloeva, Fahriniso, The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models (September 10, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>
34. Тухтасинов, И. М. (2019). ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПЕРЕВОДА. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 111-113).
35. Сукиасян, Г. А., Тухтасинов, И. М., Гушул, Ю. В., & Баштанар, И. М. (2019). Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI века: материалы междунар. науч.-творч. форума (научной конференции), 7–8 нояб. 2019 г./сост.: СБ Синецкий (отв. сост.).
36. Тухтасинов, И. М. (2018). Методика выявления эквивалентности слов разносистемных языков в процессе перевода. Бюллетень науки и практики, 4(7), 539-544.
37. Тухтасинов, И. (2017). Таржимада маданият мослашиш ҳолатлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(2 (63)), 5-9.
38. Тухтасинов, И. (2017). Жамият тарихининг хозирги босқичида таржимонлар тайёрлашнинг асосий муаммолари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 20-24.

-
39. Тухтасинов, И. (2016). Таржима назариясида тиллараро эквивалентлик тушунчаси ва унинг тадқиқи. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 26-30.
40. Тухтасинов, И. М. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. ББК 74.48 Р 76, 314.